KAPDEPO
INVESTMENT COMPANY

AXBOROT
MEMOSI



DAVLAT HIMOYASI OSTIDA

www.kapdepo.uz

Oktabr, 2026

Fitch Ratings: banklarni sog‘lomlashtirishning yangi tartibi O‘zbekiston banklariga davlat ko‘magi bahosini o‘zgartirmaydi

2026-yil 6-oktabr kuni Fitch Ratings O‘zbekistonda banklarni sog‘lomlashtirish va tugatishning yangi tartibi bo‘yicha sharh e’lon qildi. Agentlikning asosiy xulosasi shuki, yangi qoidalar banklarga davlat tomonidan ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan yordamga berilgan bahoni o‘zgartirmaydi. Fitch moliyaviy muammolarga duch kelgan davlat ulushidagi banklarga hukumat yordam ko‘rsatish ehtimolini hamon o‘rtacha deb baholaydi. Xususiy banklar bo‘yicha esa yondashuv avvalgidek qolmoqda: agentlik ularning reytingini belgilashda davlat tomonidan yordam ko‘rsatilishi ehtimolini hisobga olmaydi.

Sog‘lomlashtirish nima va u nima uchun kerak?

Bankni sog‘lomlashtirish uning o‘z majburiyatlarini mustaqil ravishda bajara olmaydigan holatga kelganida moliyaviy ahvolini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlarni anglatadi. Bank faoliyatini tiklashning imkoni bo‘lmasa, uni tugatish jarayoni boshlanishi mumkin. Bunda asosiy maqsad muhim bank xizmatlarini saqlab qolish, omonatchilar manfaatlarini himoya qilish va muammolarning butun moliya tizimiga tarqalishining oldini olishdan iborat.

Banklarni sog‘lomlashtirishning zamonaviy yondashuvi 2008-yilgi moliyaviy inqirozdan so‘ng rivojlandi. O‘sha paytda davlatlar yirik banklarni budjet mablag‘lari hisobidan qutqarishga majbur bo‘ldi. 2011-yilda Moliyaviy barqarorlik kengashi (FSB) muammoga duch kelgan moliyaviy tashkilotlarni tartibga solish bo‘yicha xalqaro tamoyillarni ishlab chiqdi. Unga ko‘ra, zararlarni birinchi navbatda bank aksiyadorlari va kreditorlarning muayyan toifalari qoplashi, bu yuk soliq to‘lovchilar zimmasiga tushmasligi kerak.

O‘zbekistonda yangi tartibning huquqiy asoslari 2025-yil 23-iyunda imzolangan "Banklarni sog‘lomlashtirish va tugatish to‘g‘risida"gi qonun bilan belgilandi. Qonun Markaziy bankning muammoli banklar bilan ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi hamda bank to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lib qolgan taqdirda yuzaga keladigan zararlar kimning zimmasiga tushishini aniqroq belgilashga xizmat qiladi.

Yangi mexanizm qanday ishlaydi?

Muammoli bankka nisbatan qo‘llaniladigan choralar, jumladan, uning moliya tizimidagi ahamiyatiga bog‘liq. Fitch sharhiga ko‘ra, tizimli ahamiyatga ega banklar (D-SIB) uchun Markaziy bank nazorati ostida moliyaviy barqarorlikni tiklash choralari ko‘zda tutilgan. Tizimli ahamiyatga ega bo‘lmagan banklar esa to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lib qolgan taqdirda, muhim funksiyalarni bajarmayotgan bo‘lsa, tugatilishi mumkin.

Sog‘lomlashtirishning asosiy vositalaridan biri bail-in mexanizmidir. Uning mohiyati shundaki, bank jiddiy moliyaviy muammolarga duch kelganda, ayrim majburiyatlari hisobdan chiqarilishi yoki kapitalga aylantirilishi mumkin. Birinchi navbatda, zararlar aksiyadorlar va subordinatsiyalangan qarz egalari zimmasiga tushadi. Agar bu yetarli bo‘lmasa, mexanizm boshqa majburiyatlarga, jumladan, katta ustuvorlikka ega qarzlarga ham tatbiq etilishi mumkin.

Mijozlarning depozitlari bail-in mexanizmidan himoyalangan. Qonunda muammoli bankning aktivlari va majburiyatlarini boshqa bankka o‘tkazish yoki muhim operatsiyalarni davom ettirish uchun vaqtinchalik bank tashkil etish kabi boshqa choralar ham nazarda tutilgan. Shu tariqa, yangi mexanizm bank muammolarini davlat mablag‘laridan avtomatik ravishda foydalanmasdan hal qilish imkonini beradi.

Fitch banklarni qanday baholaydi (1/2)

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bahosi	Bank	Mulkchilik shakli	D-SIB maqomi	Uzoq muddatli reyting (IDR)	GSR
Suveren reytingga tenglashtirilgan	O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki (NBU)	Davlat	Ha	BB / Ijobiy	bb
	“Agrobank” ATB	Davlat	Ha	BB / Ijobiy	bb
	“Xalq banki” ATB	Davlat	Ha	BB / Ijobiy	bb
	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB	Davlat	Yo‘q	BB / Ijobiy	bb
	“Aloqabank” ATB	Davlat	Yo‘q	BB / Ijobiy	bb
	“Mikrokreditbank” ATB	Davlat	Yo‘q	BB / Ijobiy	bb
	“O‘zsanoatqurilishbank” ATB	Davlat	Ha	BB / Barqaror	bb
	“Asakabank” AJ	Davlat	Ha	BB / Barqaror	bb

Fitch davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ehtimolini baholashda bank kimga tegishli ekanidan tashqari, uning iqtisodiyotdagi o‘rni, davlat siyosatini amalga oshirishdagi ahamiyati hamda ilgari kapital yoki moliyalashtirish shaklida yordam olganini ham hisobga oladi. Shu sababli davlat ulushiga ega banklarga nisbatan agentlikning yondashuvi ham bir xil emas.

NBU, Agrobank, Xalq banki, Biznesni rivojlantirish banki, Mikrokreditbank va Aloqabankning uzoq muddatli emitent defolt reytinglari O‘zbekistonning suveren reytingi darajasida, ya’ni "BB", prognoz esa "Ijobiy" etib belgilangan. Fitch bahosiga ko‘ra, bu banklarning reytinglari davlat mulkidagi strategik mavqei, ustuvor tarmoqlarni moliyalashtirish va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishdagi roli bilan qo‘llab-quvvatlanadi. NBU uchun esa uning tizimli ahamiyati ham qo‘shimcha omil hisoblanadi.

So‘nggi besh yil ichida davlat va unga aloqador tuzilmalar davlat vazifalarini bajaruvchi banklar kapitaliga qariyb 2,4 mlrd AQSh dollari yo‘naltirgan. Bu mablag‘lar banklar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va kapital yetarliligi me’yorlariga rioya etishga yordam bergan. Ushbu guruhdagi boshqa banklardan farqli ravishda, NBUga qo‘shimcha kapital kiritish talab etilmagan.

Fitch banklarni qanday baholaydi (2/2)

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bahosi	Bank	Mulkchilik shakli	D-SIB maqomi	Uzoq muddatli IDR	GSR
Suveren reytingdan bir pog‘ona past	“Turonbank” ATB	Davlat	Yo‘q	BB- / Ijobiy	bb-
Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hisobga olinmaydi	“Ipak Yo‘li” AITB	Xususiy	Yo‘q	B+ / Barqaror	Qo‘llab-quvvatlash hisobga olinmaydi
	“Orient Finans” XATB	Xususiy	Yo‘q	B+ / Barqaror	Qo‘llab-quvvatlash hisobga olinmaydi
	“Universal bank” ATB	Xususiy	Yo‘q	B- / Barqaror	Qo‘llab-quvvatlash hisobga olinmaydi
	“Anor bank” AJ	Xususiy	Yo‘q	CCC+	Qo‘llab-quvvatlash hisobga olinmaydi
Davlat ko‘magi qo‘llanilmaydi: aksiyador yordami mavjud	“Ipoteka-bank” ATIB	Xorijiy	Ha	BB / Ijobiy	Tatbiq etilmaydi
	“TBC Bank” ATB	Xorijiy	Yo‘q	BB- / Barqaror	Tatbiq etilmaydi

Xususiy banklarga nisbatan Fitch avvalgi yondashuvini saqlab qolmoqda: davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash reytingi (GSR) "qo‘llab-quvvatlash mavjud emas" darajasida qoladi. Bu xususiy bank albatta defoltga uchraydi yoki uning kreditorlari mablag‘larini yo‘qotadi, degani emas. Bu shunchaki Fitch bankning kreditga layoqatliligini baholashda davlat avtomatik ravishda aralashadi, deb hisoblamasligini anglatadi.

Yangi tartib ushbu yondashuvni yanada mustahkamlaydi. Endilikda qonunchilik muammoli bank zararlarini aksiyadorlar va kreditorlar o‘rtasida taqsimlash imkonini beruvchi mexanizmlarni bevosita nazarda tutadi. Fitch fikricha, bank tizimli ahamiyatga ega bo‘lgan taqdirda ham, xususiy banklarning katta ustuvorlikka ega qarzlari egalarini himoya qilish uchun davlat mablag‘laridan foydalanish ehtimoli past.

Investorlar uchun bu bank obligatsiyalarini sotib olishda faqat reyting va emitentning tanilganligiga tayanish yetarli emasligini anglatadi. Kredit portfeli sifati, kapital yetarliligi, moliyalashtirish manbalari tarkibi va muayyan obligatsiya chiqarilishining shartlarini ham hisobga olish muhim. Ayniqsa, subordinatsiyalangan qarzlarni sinchiklab baholash lozim, chunki zararlar yuzaga kelganda ular aksiyadorlik kapitalidan keyin birinchilardan bo‘lib zarar ko‘rishi mumkin.

KAPDEPO
INVESTMENT COMPANY



+998 55-511-02-02
www.kapdepo.uz
info@kapdepo.com
@Kapdepo
Kapdepo

Mazkur material “KAPITAL-DEPOZIT” MChJ tahlilchisi Kamronbek Yo’ldoshev tomonidan tayyorlangan. Kompaniya ushbu hisobotda har qanday qimmatli qog'oz yoki kompaniyaga nisbatan ifodalangan barcha pozitsiyalar tahlilchining har qanday tahlil qilingan kompaniya yoki qimmatli qog’oz bo'yicha shaxsiy qarashlarini aks ettirishini e'lon qiladi. Har bir tahlilchi va/yoki har qanday tahlilchi bilan bog'langan shaxslar bozor ma'lumotlarini to'plash, shakllantirish va sharhlash uchun treyderlar va boshqa xodimlar bilan o'zaro aloqada bo'lishi mumkin.

Tahlilchilarning hech biri, kompaniya, uning direktorlari va xodimlari ushbu Hisobotdan yoki uning mazmunidan har qanday foydalanish natijasida yuzaga keladigan yoki ushbu Hisobot bilan bog'liq holda yuzaga keladigan har qanday zararlar uchun hech qanday tarzda javobgar bo'lmaydi. Har bir tahlilchi va/yoki unga aloqador shaxslar ushbu Hisobotga muvofiq choralar ko‘rishi yoki ushbu Hisobotda keltirilgan ma’lumotlardan, shuningdek, ushbu Hisobot tuzilgan tahliliy ish natijalaridan foydalanishi mumkin.

Ushbu hujjatda ko'rsatilgan ma'lumotlar har qanday sotib oluvchi yoki boshqa shaxs tomonidan qimmatli qog'ozlarga nisbatan investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'la olmaydi. Ushbu Hisobot kompaniya biznesi, uning aktivlari yoki qimmatli qog'ozlari qiymatini baholash emas.Olingan mukofotning hech bir qismi ushbu Hisobotda bildirilgan muayyan tavsiya yoki fikr bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq emas va kelgusida ham bog‘liq bo‘lmaydi. Tahlilchilarning ish haqi “KAPITAL-DEPOZIT” MChJ mijozlari bo‘lgan investorlarga imtiyozlar berishga qaratilgan faoliyat va xizmatlarga qarab belgilanadi.

“KAPITAL-DEPOZIT” MChJning barcha xodimlari singari, tahlilchilar ham “KAPITAL-DEPOZIT” MChJ rentabelligiga qarab haq oladilar, bu kompaniya bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladigan boshqa faoliyatdan olingan daromadlarni o‘z ichiga oladi. Tahlilchilar yoki ularning affillangan kompaniyalari yoki boshqa shaxslar sotuvga qo'yilgan qimmatli qog'ozlari bo'yicha anderrayting guruhining a'zolaridir yoki bo'lishi mumkin. Tahlilchilar kompaniyaning qimmatli qog'ozlarini kelgusida ommaviy joylashtirishda qatnashish huquqiga ega.

Ushbu Hisobotda keltirilgan har qanday mulohazalar yoki fikrlar ushbu Hisobot nashr etilgan paytda dolzarb hisoblanadi. Agar ushbu Hisobotning sanasi eskirgan bo'lsa, qarashlar va mazmun tahlilchining hozirgi fikrini aks ettirmasligi mumkin. Ushbu ma'lumot moliyaviy yoki tijorat xarakterdagi joriy voqealarning to'liq xulosasi emas va shuning uchun foydalanilmasligi kerak. “Kapital-Depozit” MChJ O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozorida qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining quyidagi litsenziyalari asosida faoliyat yuritayotganligi haqida xabar beradi: brokerlik va depozitarlik faoliyati uchun 27.04.2015-yildagi 1196-son; investitsiya maslahatchisi faoliyatini amalga oshirish uchun 27.04.2015 yildagi 1197-son; investitsiya aktivlarini ishonchli boshqarish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun 2017-yil 29-dekabrdagi 1296-son.